

Research Article

**PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF THE USE OF MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN
INCREASING THE EFFICIENCY OF PRE-RECRUITMENT MILITARY TRAINING**

U.X. Temirov¹

¹Lecturer, methodical preparation cycle, military faculty, Bukhara state University, Uzbekistan.

DOI: http://doi.org/10.15350/UK_6/11.18

Abstract

The article examines the pedagogical significance of the use of modern information technologies in increasing the effectiveness of pre-conscription military education and their application in the classroom.

Key words: pre-conscription military education, pedagogical and modern information technology, computer, information technology, information resources, synchronous system, asynchronous system.

Mavjud ijtimoiy sharoitlar ta'lim tizimining ishlab chiqarish, ilm-fan, texnika va texnologiyalar rivoji bilan integratsiyalashuvini ta'minlash, o'quv-tarbiya ishlari sifatini oshirish, shuningdek, yuqori malakaga ega, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ayni vaqtda **chaqiriqqacha harbiy talim** jarayoniga ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot texnologiyalarni jadal tatbiq etish, ularning imkoniyatlaridan maqsadli va samarali foydalanish hamda bu borada samaradorlikka erishish dolzarb pedagogik vazifalardan biridir. Ushbu vazifaning ijobiy hal etish zaruriyati O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da to'la ochib berilgan.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida ham rivojlangan mamlakatlarda bo'lgani kabi kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish, ularning jamiyatning barcha jabxalariga samarali tatbiq etishga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi (2002 yil 30 maydagi PF-3080 sonli) Farmonida ilgari surilgan g'oyalar ana shu e'tiborning yorqin namunasi bo'lib, ularga muvofiq 2010 yilga qadar jamiyat hayotini axborotlashtirishni qayta ko'rish, ilmiy dasturlar, telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirishning huquqiy asoslari yaratildi. Bu asosda jamiyat hayotini axborotlashtirishning milliy tizimini yaratish, barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va jahon axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Mavjud manbalar bilan tanishish va ularda bildirilgan fikrlarni tahlil qilish natijasida «axborot texnologiyasi» tushunchasining ikki xil ma'noda qo'llash maqsadga muvofiq. Ya'ni, birinchidan, ma'lum bir obyekt mohiyati to'g'risidagi dalillarga ega bo'lish maqsadida axborotlarni to'plash, ularni tahlil qilish va uzamonaviy axborot texnologiyalari ishga imkon beruvchi usul va vositalar yig'indisi, ikkinchidan, axborot resurslari bilan ishlash usul va metodlari to'g'risidagi bilimlar manbai (ya'ni fan)ni ifodalashga xizmat qiladi.

Bu o'rinda shuni ham aytib o'tish lozimki, qaysidir ma'noda pedagogik texnologiyalarning barchasi ham axborotlarni yig'ish va uzamonaviy axborot texnologiyalari ishga xizmat qiladi. Zero, **chaqiriqqacha harbiy talimda** o'quv-tarbiya jarayoni elektron darslik va talabalar o'rtasida o'zaro axborotlarning almashinishi asosida tashkil etiladi. Zamonaviy sharoitda keng qo'llanilayotgan «ta'limning axborot texnologiyalari» tushunchasi negizida asosan ta'lim-tarbiya jarayonida axborotlar bilan ishlash maqsadida maxsus usul, dastur, elektron nashrlar va texnik vositalar (audio, videotexnikalar, kompyuterlar va telekommunikatsiya tarmoqlari)ning qo'llanilishini ifodalaydi.

Axborot texnologiyalari axborotlarning qabul qilinishi, to'planishi va uzamonaviy axborot texnologiyalarini ta'minlabgina qolmay, shu bilan birga axborot iste'molchilari o'rtasida o'zaro muloqotni ham yuzaga keltiradi. Ana shu xususiyatiga ko'ra zamonaviy axborot texnologiyalari «kommunikatsiya texnologiyalari» sifatida ham e'tirof etiladi.

Chaqiriqqacha harbiy ta'limda dars jarayonini tashkil qilishda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalari orqali, o'quv axborotlarini qabul qilish usuli bo'yicha sinxron va asinxron tizimlari mavjud.

Sinxron tizimlar o'qish jarayonida bir vaqtning o'zida ham talaba, ham o'qituvchining qatnashishini talab etadi. Bunday tizimlarga interfaol televideniye, audio grafika, telekonferensiyalar, IRC, MUD, MOO formatlardagi muloqot shakllari kiradi. Ayniqsa, hozirda keng qo'llanilayotgan Zoom dasturi yordamida darslarning tashkil qilinishi chaqiriqqacha harbiy ta'limda o'zining bir qancha ustunlik tomonlariga ega. Bunda talabalar bevosita o'qituvchi bilan jonli muloqotga kirishib, kerakli ko'rgazmali materiallar asosida darsdagi mavzuni qabul qiladilar. Bunda audiovizual jarayon talabalarning darsni yaxshi tushunib olishlariga yordam beradi.

Asinxron tizimlar o'qish jarayonida talaba va o'qituvchini bir vaqtning o'zida qatnashishini talab etmaydi. Talabalarning o'zi mashg'ulotlar rejasini va vaqtini tanlaydi. Bunday tizimlarga nashr materiallari, audiokassetalar, videokassetalar, Internet asosidagi kurslarni kiritish mumkin. Ayniqsa, hozirgi pandemiya sharoitida bu tizimdan foydalanish Moodle tizimidan foydalanishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan quyidagi pedagogik maqsadlarda foydalaniladi:

- o'quv-tarbiya jarayonining barcha darajalarini intensivlash;
- talabaning har tomonlama rivojlanishi;
- oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini axborotli jamiyat sharoitidagi hayotga tayyorlash;
- ijtimoiy talabni qondirish.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan qay darajada samarali foydalanish ular bilan muloqotdagi foydalanuvchilarning ko'nikma va malakalariga bog'liq.

References:

- Tayloqov N.I., Rustamov N. Elektron o'quv adabiyotlar yaratish - davr talabi // Ta'lim va tarbiya j. - T.: 2003. - № 1-2. -23-25-6.
- Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi. - T.: O'zPFITI, 2002. -19 6.